



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	



O'QUVCHILARDA BADIY-ESTETIK DID VA DIZAYNERLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
 katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda oila bilan hamkorlikning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni, shakl va usullari tahlil qilingan. Shuningdek, ota-onalarning badiiy-estetik tarbiya jarayonidagi o'rni hamda ularning ijodiy faoliyatga jalb etilishi o'quvchilarning dizaynerlik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omili sifatida asoslangan. Mahalliy va xorijiy pedagog olimlarning ilmiy qarashlari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: estetik did, dizaynerlik ko'nikmalari, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, ijodiy faoliyat, estetik tarbiya, oila hamkorligi.

Abstract: The article examines the socio-pedagogical mechanisms of family cooperation in developing students' artistic and aesthetic taste and design skills. It analyzes the content, forms, and methods of collaboration between educational institutions and families. The study also substantiates the role of parents in artistic and aesthetic education and their involvement in creative activities as a significant factor in fostering students' design skills. Practical recommendations are proposed based on the scientific views of national and international scholars in the field of pedagogy.

Key words: aesthetic taste, design skills, socio-pedagogical mechanisms, creative activity, aesthetic education, family-school cooperation.

Аннотация: В статье раскрываются социально-педагогические механизмы сотрудничества семьи и образовательного учреждения в развитии художественно-эстетического вкуса и дизайнерских навыков учащихся. Проанализированы содержание, формы и методы взаимодействия образовательного учреждения и семьи. Обоснована роль родителей в процессе художественно-эстетического воспитания, а также значение их вовлечённости в творческую деятельность как важного фактора формирования дизайнерских навыков учащихся. На основе научных взглядов отечественных и зарубежных учёных-педагогов предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: эстетический вкус, дизайнерские навыки, социально-педагогические механизмы, творческая деятельность, эстетическое воспитание, сотрудничество семьи и школы.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish masalasi faqat intellektual bilimlar bilan chegaralanmay, balki o'quvchilarning estetik madaniyati, ijodiy tafakkuri va muhitni go'zallik mezonlari asosida idrok etish qobiliyatini shakllantirishni ham taqozo etadi. Ayniqsa, o'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ijodiy faolligi hamda madaniy saviyasini oshirishda muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan tahlil qilish o'quvchi shaxsining rivojida ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlar - oila, maktab va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni chuqur anglash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

K. Umarov, R. Karimov, M. Mirsaidova va G. Oyxo'jaevalarning "Estetika asoslari" o'quv qo'llanmasida: "Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ijodkorligi orqali namoyon bo'ladi. Estetik did voqea-hodisalarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg'usi orqali ifoda topadi. Estetik did zaminida go'zallikni xunuklikdan ajrata bilish hamda undan beg'araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his-tuyg'ular bilan ish ko'radi, ya'ni hayot go'zalliklari va voqealarni his eta bilish, voqeali to'qnashuvlarda ularni farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi", deb ta'riflangan.

B. Mustafoevning “Estetik tarbiya metodikasi” o’quv qo’llanmasida: “Estetik did insonning aqliy va ruhiy olami, orzu-umidi, murod-maqsadi, talab-ehtiyoji hamda manfaatlarining ro’yobga chiqishini ta’minlashda muhim rol o’ynaydi”, deb ta’kidlangan.

Estetik did ko’plab aniq va bir-biridan sezilarli darajada farqlanuvchi modifikatsiyalarda namoyon bo’ladi. Shu bois, “did” tushunchasi o’zaro yaqin bo’lgan psixik mexanizmlar majmuasini ifodalaydi. Ular o’rtasidagi farq, asosan, baholash sohasi xususiyatlari (hayotiy voqelik) bilan belgilanadi, ularning o’xshash jihati esa umumiy funksiyasida namoyon bo’ladi. Bu funktsiya psixikaning boshqa qobiliyatlariga xos emas, balki estetik hodisalarning real borliqdagi qiymatini yoki san’at asarlarining ahamiyatini aniqlovchi nihoyatda sezgir “asbob” sifatida namoyon bo’ladi.

Badiiy-estetik did - shaxsning san’at asarlari, atrof-muhit, me’moriy va dizayn obyektlarini idrok etish, baholash hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi.

Dizaynerlik ko’nikmalari esa o’quvchining estetik tasavvurlari asosida makon, buyum yoki vizual muhitni ongli ravishda loyihalash, bezash va takomillashtirishga qaratilgan amaliy faoliyat hisoblanadi. Mazkur ko’nikmalar o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, badiiy-estetik did dizaynerlik faoliyatining nazariy-estetik asosini, dizaynerlik ko’nikmalari esa estetik didning amaliy ifodasini tashkil etadi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan qaralganda, badiiy-estetik did va dizaynerlik ko’nikmalari shaxsning faqat individual sifatleri emas, balki uning ijtimoiy muhit bilan o’zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan kompleks kompetensiyalaridir. O’quvchi estetik qadriyatlarni oilada, maktabda va jamoatchilik muhitida kuzatadi, o’zlashtiradi hamda qayta ishlab, shaxsiy tajribasiga aylantiradi. Shu sababli, mazkur jarayonni faqat dars doirasida emas, balki keng ijtimoiy-pedagogik muhitda tashkil etish zaruriyati yuzaga keladi.

Ijtimoiy pedagogika nazariyasida oila shaxs tarbiyasining eng muhim va uzluksiz ijtimoiy instituti sifatida e’tirof etiladi. Aynan oilada bolada go’zallik haqidagi dastlabki tasavvurlar, estetik ehtiyojlar, did va qadriyatlar shakllanadi. Uy muhiti, interyer dizayni, milliy bezaklar, ranglar uyg’unligi, ota-onalarning san’at va estetikaga bo’lgan munosabati o’quvchining estetik dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko’rsatadiki, maktabda berilayotgan estetik ta’lim oila tomonidan qo’llab-quvvatlanmaganda, uning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Shu bois, o’quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko’nikmalarini shakllantirish jarayonini oila bilan hamkorlikda tashkil etish zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining muhim ijtimoiy-pedagogik zaruriyati sifatida namoyon bo’ladi.

Mazkur mexanizmlarga quyidagilar kiradi: oila bilan maqsadli pedagogik muloqotni yo’lga qo’yish, ota-onalarning estetik savodxonligini oshirish, oilaviy ijodiy faoliyatni rag’batlantirish, mahalla va madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda estetik tadbirlar tashkil etish, shuningdek, maktab va oilaning tarbiyaviy harakatlarini uyg’unlashtirish. Ushbu mexanizmlar o’quvchining estetik rivojini qo’llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribada (Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiya ta’lim tizimlarida) estetik tarbiya hamda dizayn elementlari oila bilan uzviy bog’langan holda amalga oshiriladi. Ushbu mamlakatlarda oilaviy ijodiy loyihalar, maktabdan tashqari dizayn studiyalari va jamoatchilik asosida tashkil etilgan estetik makonlar orqali o’quvchilarning dizayn tafakkuri rivojlantiriladi. Ota-onalar tarbiyaviy jarayonning faol subyekti sifatida jalb etilib, bolalar bilan birgalikda estetik muammolarni hal etishga undaladi.

Milliy tajribada esa badiiy-estetik tarbiya ko’proq maktab doirasida olib borilib, oilaning ushbu jarayondagi ishtiroki yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shunga qaramasdan, milliy hunarmandchilik, amaliy san’at, milliy bezaklar va me’moriy an’analar o’quvchilarda dizaynerlik ko’nikmalarini shakllantirish uchun katta pedagogik salohiyatga ega. Mazkur salohiyatni oila bilan hamkorlikda pedagogik jarayonga integratsiyalash zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oila bilan hamkorlikda o’quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko’nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi o’quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko’nikmalarini rivojlantirish mazmunini, mazkur jarayonda ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni tashkil etish shakllari va yo’llarini, shuningdek, oila bilan hamkorlikka asoslangan holda o’quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko’nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik modelini o’z ichiga oladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalasi faqat bilim, ko’nikma va malakalar bilan chegaralanmay, balki uning estetik dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri hamda atrof-muhitga ongli va mas’uliyatli munosabatini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, o’quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko’nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo’lmoqda. Mazkur jarayon ijtimoiy pedagogika fanining predmeti doirasida qaralganda, o’quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi, madaniy moslashuvi va ijodiy faolligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.



Badiiy-estetik did o'quvchining san'at asarlari, tabiat hodisalari, ijtimoiy muhit, me'moriy va dizayn obyektlariga nisbatan estetik mezonlar asosida ongli baho bera olish qobiliyatini ifodalaydi. U shaxsning go'zallikni sezish, idrok etish, solishtirish va tanqidiy baholash malakalarini o'z ichiga oladi. Estetik did o'quvchida tug'ma sifat sifatida emas, balki ijtimoiy tajriba, tarbiyaviy ta'sir va faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Aynan shu jihati bilan u ijtimoiy-pedagogik ta'sirga ochiq va boshqariladigan jarayon hisoblanadi.

Dizaynerlik ko'nikmalari esa badiiy-estetik didning amaliy ifodasi bo'lib, o'quvchining estetik tasavvurlari asosida makon, buyum va vizual muhitni loyihalash, bezash hamda takomillashtirishga qaratilgan faoliyatini anglatadi. Dizaynerlik ko'nikmalari ranglar uyg'unligini his etish, shakl va funktsionallikni uyg'unlashtirish, kompozitsion yechim topish, estetik va amaliy talablarni birlashtirish kabi malakalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar o'quvchining kundalik hayotida, oilaviy muhitda va jamoatchilik faoliyatida qo'llanilgandagina barqaror rivojlanadi.

O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni kompleks xarakterga ega bo'lib, u bir necha tarkibiy yo'nalishlarni qamrab oladi.

Birinchidan, bu mazmun estetik bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi. Estetik bilimlar san'at turlari, dizayn asoslari, milliy va zamonaviy bezak an'analari, ranglar psixologiyasi, kompozitsiya va shakl qonuniyatlari haqidagi tushunchalardan iborat bo'lib, ular o'quvchining estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur bilimlar tasviriy san'at, texnologiya, adabiyot, tarix kabi fanlar mazmuni bilan uzviy bog'liq holda berilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, mazmunning muhim tarkibiy qismi estetik munosabat hisoblanadi. Estetik munosabat o'quvchining atrof-muhitdagi go'zallik va nomutanosiblikni farqlay olishi, estetik qadriyatlarni qadrlashi hamda ularni shaxsiy hayotiy pozitsiyasiga aylantirishi bilan ifodalanadi. Estetik munosabat faqat bilim asosida emas, balki his-tuyg'u, tajriba va amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Shu bois o'quvchilarning estetik munosabatini rivojlantirishda oila muhiti, undagi estetik tartib, madaniy muhit va ota-onaning shaxsiy namunalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Ijodiy faoliyat o'quvchining estetik bilim va munosabatlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Rasm chizish, maket tayyorlash, bezak buyumlari yaratish, uy yoki sinf xonasini estetik jihatdan tashkil etish kabi faoliyatlar o'quvchining dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur faoliyat oila bilan hamkorlikda tashkil etilganda esa uning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi.

Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan, o'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni faqat maktab ta'limi bilan chegaralanmasligi lozim. O'quvchi shaxsining estetik rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u oila, maktab va jamoatchilik muhitida parallel tarzda kechadi. Oila estetik tajribaning birlamchi manbai, maktab mazkur tajribani tizimlashtiruvchi va yo'naltiruvchi institut, jamoatchilik esa o'quvchining estetik faoliyatini keng ijtimoiy maydonga olib chiqadigan muhit sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur jarayon mazmunini aniqlashda milliy madaniyat va an'analar alohida e'tiborga olinishi zarur. Milliy hunarmandchilik, amaliy san'at, me'morchilik va bezak san'ati namunalari o'quvchilarda dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun boy manba hisoblanadi. Ularni oilaviy muhitda, ota-onalar bilan birgalikda o'rganish va amaliy faoliyatda qo'llash o'quvchilarda milliy estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy dizayn yo'nalishlari va global estetik tendensiyalar bilan tanishtirish o'quvchining estetik tafakkurini kengaytiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan uyg'unlashgandagina samarali bo'ladi. Dars jarayonida berilgan estetik bilimlar oilaviy va jamoatchilik faoliyati orqali mustahkamlanadi, o'quvchi esa o'zining estetik qarashlarini real hayotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarining barqaror shakllanishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning badiiy-estetik didi va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda oila bilan hamkorlikning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasasi, oila va jamiyat o'rtasidagi uzviy hamkorlik o'quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik madaniyat va dizaynerlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur hamkorlikni tizimli va maqsadli ravishda tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-pedagogik hamkorlik quyidagi asosiy shakllar orqali tashkil etiladi:

- oilaviy estetik-dizayn mashg'ulotlari (ota-ona va bola hamkorligida ijodiy faoliyat);
- maktabdagi fanlararo integratsiya (tasviriy san'at, texnologiya, adabiyot va tarix fanlari bilan uzviy bog'liqlik);
- darsdan tashqari ijodiy to'garaklar va loyihalar;
- mahalla hamda madaniyat muassasalari bilan hamkorlik (ko'rgazmalar, hunarmandlar bilan uchrashuvlar);
- media-ta'lim va raqamli dizayn vositalaridan foydalanish.

Mazkur shakllarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibraimov X.I. Quronov M. "Umumiy pedagogika". - Toshkent: Shaffof, 2023.
2. Muslimov N.A. Kasbiy pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Qo'ysinov O.A. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim samaradorligi. - Toshkent: Fan, 2010.
4. Rajabova M. Badiiy-estetik tarbiya asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Sayidaxmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.